



INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “VAQT” KONSEPTINI VOQELANTIRUVCHI VOSITALARNING QIYOSIY TADQIQI

Xabibullayeva Xusnigul Yaxyobek qizi

Turon universiteti Andijon filiali

1-bosqich magistranti

+998950140505

husnigulhabibullayeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezis ingliz va o‘zbek tillarida “vaqt” konseptining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda vaqt konseptining leksik, grammatik, frazeologik va metaforik voqelanish vositalari tahlil qilinadi. Har ikki til materiallari asosida vaqtning madaniy talqini, diskursiv funksiyalari va milliy tafakkurda aks etish shakllari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, kognitiv semantika va tarjima nazariyasi uchun muhim ilmiy xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: vaqt konsepti, konseptologiya, qiyosiy tilshunoslik, lingvokognitiv tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili.

Abstract. This thesis is devoted to a comparative study of linguistic means actualizing the concept of “time” in English and Uzbek. The research examines lexical, grammatical, phraseological, and metaphorical representations of time within a cognitive and linguocultural framework. Based on materials from both languages, the study identifies cultural interpretations, discursive functions, and national cognitive models of time. The results contribute to comparative linguistics, cognitive semantics, and translation studies.

Key words: concept of time, conceptual linguistics, comparative linguistics, cognitive analysis, English language, Uzbek language.

Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi inson tafakkuri, madaniy tajribasi va til o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beruvchi markaziy kategoriyalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, universal va shu bilan birga milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo‘lgan “vaqt” konsepti turli tillarda o‘ziga xos lingvistik voqelanishga ega bo‘lib, bu holat uni qiyosiy jihatdan tadqiq etishni dolzarb etadi.

Vaqt konsepti insonning borliqni idrok etishida asosiy kognitiv tayanchlardan biri bo‘lib, u nafaqat grammatik kategoriyalar (zamon, aspekt), balki leksik birliklar, frazeologizmlar, metaforalar orqali ham ifodalanadi [1, 45]. Ingliz va o‘zbek tillarida vaqtning ifodalash vositalari struktura va semantika jihatidan farqlanishi milliy tafakkur va madaniy qarashlarning tilga ta’sirini ko‘rsatadi.

Tadqiqot muammosi shundan iboratki, ingliz va o‘zbek tillarida vaqt konseptini voqelantiruvchi vositalar ko‘pincha alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lib, ularning qiyosiy-kognitiv tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan. Xususan, vaqtning chiziqli va tsiklik



talqini, metaforik modellari hamda diskursiv qo'llanilishi ikki til kesimida tizimli tahlilni talab etadi [2, 112].

Tadqiqotimizning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida "vaqt" konseptini voqelantiruvchi lingvistik vositalarni qiyosiy tahlil qilish hamda ularning lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Kognitiv tilshunoslikda konsept inson ongida shakllangan bilimlar majmui sifatida talqin qilinadi. Vaqt konsepti esa universal bo'lishiga qaramay, har bir til va madaniyatda o'ziga xos semantik va obrazli qatlamlarga ega [3, 78]. Ingliz tilida vaqt ko'proq chiziqli (linear) model asosida talqin qilinsa, o'zbek tilida tsiklik (aylanma) tasavvur ustunlik qiladi.

Ingliz tilida *time*, *moment*, *age*, *era*, *period* kabi birliklar vaqtning turli semantik qatlamlarini ifodalaydi. O'zbek tilida esa vaqt, zamon, davr, payt, lahza kabi so'zlar faol qo'llanadi [4, 56]. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida vaqt ko'proq ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Ingliz tilidagi zamon tizimi murakkab bo'lib, vaqtning aniqligi va davomiyligini ifodalashga yo'naltirilgan. O'zbek tilida esa zamon shakllari kamroq bo'lsa-da, kontekstual vositalar orqali vaqt ma'nosi kengaytiriladi [5, 134].

Ingliz tilidagi *time is money*, *time flies* kabi metaforalar vaqtning resurs sifatida talqin qiladi. O'zbek tilida esa vaqt oqar suv, vaqt kutilmaydi kabi iboralar vaqtning qaytmasligini aks ettiradi [6, 91].

Tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlandi:

- vaqt konsepti ingliz tilida pragmatik va iqtisodiy yo'nalishda talqin qilinadi;
- o'zbek tilida vaqt axloqiy va falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi;
- frazeologik birliklar milliy tafakkurni yaqqol aks ettiradi;
- grammatik vositalar vaqtning konseptual modellari belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillarida "vaqt" konsepti umumiy universal xususiyatlarga ega bo'lsa-da, uning lingvistik voqelanishi milliy-madaniy tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir. Qiyosiy tahlil vaqt konseptining har ikki tilda o'ziga xos kognitiv va diskursiv modellari aniqlash imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Evans V. The Structure of Time in Language. – Oxford: OUP, 2004. – P. 45–52.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 110–118.
3. Maslova V.A. Kognitivnaya lingvistika. – M.: Flinta, 2007. – S. 75–89.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 54–60.
5. Sodiqov Q. Hozirgi o'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2015. – B. 130–145.
6. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. – Oxford: OUP, 1997. – P. 88–95.